

МАЗМУН

ТИЛ ҲАМ АДЕБИЯТ

Темирбекова А.О. Из истории исследования междометий

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Примбетов Қ.Т. Қарақалпақстандағы архитектуралық естеликлер ҳәм миллий мийраслар арқалы студентлерди әдеп-иқрамлылыққа тәрбиялаўдың әҳмийети

Kadirova Sh.A. Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda kompetentli-yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanishning nazariy aspektlari

Исағалиева С. Ўқувчилар функционал саводхонлигини шакллантириш педагогик муаммо сифатида

Султаниязов М.Б. Глобаллашув жараёнида юксак маънавиятли шахс тарбиясида миллий тарбия имкониятларидан фойдаланиш йўллари

Karamatova D.S. Zamonaviy ekologik ta'lim mazmunida integrativ yondashuvni ta'minlash

Муродова У.Д. Педагогикада дидактиканинг асосий категориялари

Султаниязов М.Б. Глобаллашув жараёнида юксак маънавиятни талаба-ёшлар онгига сингидиришнинг педагогик технологиялари

Mirxalilova N.A. TIMSS xalqaro tadqiqoti va uning ahamiyati

Курбанова А.Т. Талабаларнинг касбий компетентлигини ривожлантиришда ахборот технологияларининг ўрни

Мирзаева Н.А. Рақобатбардош педагог - биологларни тайёрлашда STEAM таълимининг долзарблиги

Quzmanova G.B. Ijtimoiy tarmoqlarning o'smir yoshidagi o'quvchilarning ijtimoiylashish jarayoniga ta'siri

Умаров А.С. “Бадий таълим ва Art marketing” жараёнини бошқаришда кластер ёндашувнинг аҳамияти

Халияров Ж.Х. Мактаб ўқувчиларда энергия тежамкорлик маданиятини шакллантириш ва ривожлантириш методикаси

Бердиев Б.Р. Конвенционал ёндашув асосида талабаларда мустақил таълимни ташкил этиш ва унинг самарадорлик натижалари

Qosimova G.I. Ta'limni raqamlashtirish va o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi bo'yicha o'quv qo'llanmasini loyihalash tamoyillari

Матякубов К.К. Технологик таълимнинг ривожланиш тадрижи: зарурат ва эҳтиёж ҳам тадқиқ

Bekqulov Q.Sh. Chizma geometriya fanini talabalarga o'rgatishda integratsiyani qo'lab dars samaradorligini oshrish

Djumaeva M.M. Markaziy Osiyo mutaffakirlarining tabiiy fanlarni rivojlanishdagi xizmatlari

Матякубов К.К. Мактабларда технологик таълимни ташкил қилиш ва бошқаришнинг педагогик тамойиллари

Абдухаликова М. Использование информационных технологий и медиаобразования в профессиональной компетентности педагогов

Шамиева О.Р. Формирование личности современного студента – важнейшая задача высшей школы

Шарахматова А.К. Адаптация студентов к кредитно-модульной системе обучения

Oromiddinov S.B. Problems of the practical application of innovative educational technologies

IJTIMOIIY TARMOQLARNING O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING IJTIMOIYLAHISH JARAYONIGA TA'SIRI

Quzmanova G.B.

ChDPU Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrası o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: axborot, tarmoq, o'quvchi, jamiyat, Facebook, MySpace, Twitter, ijtimoiy, Google, Yandex, sayt, platforma, ma'daniyat, qadriyat, inson, video, audio, munosabat, ota-onalar.

Ключевые слова: информация, сеть, читатель, сообщество, Facebook, MySpace, Twitter, соцсети, Google, Яндекс, сайт, платформа, культура, ценность, человек, видео, аудио, отношения, родители.

Key words: information, network, reader, community, Facebook, MySpace, Twitter, social networks, Google, Yandex, site, platform, culture, value, person, video, audio, relationships, parents.

Bugungi jamiyat ijtimoiylashuvini ijtimoiy tarmoqlar va axborot vositalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ijtimoiylashish tushunchasi 20-asr boshlarida sotssial tushuncha sifatida birinchi marta E.Dyurkgeym tomonidan insonning rivojlanishi sifatida ishlab chiqilgan[1]. O'quvchilar ijtimoiy tarmoq va axborot vositalaridan foydalanish orqali ijtimoiylashish jarayonida qatnashadi. Ijtimoiylashuv-bu insonning hayoti davomida erishayotgan jamiyat va madaniyatning qadriyatlari va ijtimoiy tartiblari bilan o'zaro munosabatda bo'lish jarayonidir.

O'smir yoshidagi o'quvchilar orasida ijtimoiy tarmoq veb saytlaridan foydalanish keng tarqalgan. So'ngi yillarda ijtimoiy tarmoqlar o'quvchilarning ijtimoiy hayotining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Har kuni yangi ijtimoiy media platformalari yaratilayotganligi sababli, bugungi yosh avlod yangi turdagi ijtimoiylashuv ta'siri ostida o'sib bormoqda. Ijtimoiy muloqotni amalga oshiruvchi har qanday veb sayt, ijtimoiy media sayt masalan, Facebook, MySpace va Twitter kabi saytlar bugungi yoshlarni shiddat bilan o'ziga jalb qiladi va so'ngi yillarda yanada jadal rivojlanmoqda. Shuning uchun ota-onalar ham ijtimoiy tarmoqlarni ijobiy va salbiy imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari kerak, undagi hamma axborotlar ham o'smir yoshidagi o'quvchilar uchun sog'lom muhit yaratmaydi. Ammo uning imkoniyatlaridan masalan: o'quvchilar o'zlari uchun muhim bo'lgan ko'plab vazifalarni onlain tarzda bajarish imkonini beradi, ota-onalari, do'stlari va boshqalar bilan muloqat qilish, rasmlar almashish, yangi do'stlar orttirish fikr almashish shuningdek, jamiyatda bo'layotgan voqealardan xabardor bo'lishi mumkin.

Mamlakatimiz taraqqiyotida hamda yosh avlodni o'sib rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ijtimoiy tarmoqlar, jamiyatda ko'plab muammolarni keltirib chiqarmoqda bu muammolarni bartaraf etish ko'pgina davlatlarda siyosat darajasiga ko'tarilgan. Ijtimoiy tarmoqlarning butun jamiyat taraqqiyotidagi jarayonlarga ta'siri tez sur'atlarda o'sib bormoqda, bu esa foydalanuvchilarning ko'plab axborot oqimlarining harakati va o'zgarishi kabi imkoniyatlarni yaratdi. Shuningdek yangi axborotlar muhiti shaxsning ijtimoiy rivojlanishida muhim vosita bo'lib xizmat qilishini ko'rsatadi.

Butun dunyoda globalashuv, madaniyatlar aralashuvi jarayoni kechmoqda. Bu murakkab jarayon nafaqat yoshlarga, balki kattalar dunyoqarashiga ham ta'siri sezilmoqda. Bir tomondan, axborot texnologiyalari kundalik hayotimizga shu qadar shiddat bilan kirib kelyaptiki, buni har qanday raqamlarsiz ham kuzatishimiz mumkin. Ayni paytda mamlakatimizda 1500dan ziyod ommaviy axborot vositalari faoliyat yuritmoqda. Ushbu ommaviy axborot vositalari navqiron avlod vakillarining axborot madaniyati va mafkuraviy immunitetini shakllantirishga hissa qo'shmoqda[2]. Mamlakatimizda ta'lim olish jarayonlariga ham axborot kommunikatsiya tizimlarini joriy qilish bo'yicha bir qator ijobiy ishlar amalga oshirildi. Xususan, ta'lim muassasalarini kompyuter texnikalari bilan ta'minlash barobarida ta'lim berishning zamonaviy usullaridan foydalanish, barcha ta'lim muassasalarida axborot-resurs markazlari tashkil etilib, ularda Internet tizimidan foydalanish imkoniyatlari yaratib berilgan. Biroq masalaning yana boshqa bir tarafi borki, yaratilayotgan imkoniyatlardan yoshlar qay yo'sinda foydalanayapti? Bu kabi imkoniyatlar ularning kamol topishiga qanday ta'sir ko'rsatyapti? – degan og'riqli savollar vujudga kelmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, hozirgi kunda yoshlarning 90 foizi asosiy

axborot manbai sifatida Internetga murojaat qilmoqda. Foydalanilayotgan axborot vositalarining katta qismi asosan “Twitter”, “Instagramm”, “Facebook”, “Odnoklassniki” kabi ijtimoiy tarmoqlar va video, audio portallarga to‘g‘ri kelsa, ma’lum bir qismigina zararli ta’sir etmaydigan, ilmiy, madaniy va ma’rifiy saytlardan iboratligini kuzatishimiz mumkin[3].

Ko‘pgina tadqiqotchilar Internet aloqalari muammosi doirasida foydalanuvchilarning ijtimoiy identifikatori muammosiga to‘xtalib o‘tadilar. A.E.Jichkina va E.P.Belinskaya ijtimoiy tarmoqda o‘ziga xoslik qancha ko‘p o‘rin egallasa, tarmoqdagi foydalanuvchilarning faolligi shuncha past bo‘ladi. Internetda foydalanuvchilarning identifikatori muammosi haqida so‘z ketganda, “virtual identifikatsiya” ni yaratishga to‘xtalib o‘tish kerak. Bunga ko‘ra quyidagi tadqiqotchilar SH.Turkle, J.Sempsey, A.E.Zhichkina, KS.Younglar “vitual shaxs” ni yaratish sabablarini ikki guruhga ajratib ko‘rsatdi.

1. Motivatsion (mavjud istaklarni qondirish)
2. Izlanish (yangi tajriba orttirish istagi) kabi sabablar[4].

Shunday qilib, Internet orqali muloqatdagi kamchiliklarni bartaraf etish va uning doirasini kengaytirish, muhim masalalar bo‘yicha bilimlarni oshirish axborot almashinuvuni barqarorlashtirish va boshqa imkoniyatlarni yaratadi. O‘smir yoshidagi o‘quvchilarning internetdagi muloqati yangi do‘stlar orttirish, sub madaniyatni izlash, ma’lum bir guruhga a‘zo bo‘lish kabi harakatlar majmuidan iborat. Ular bevosita ko‘plab odamlar bilan muloqat qiladi, qiziqqan guruhlariga a‘zo bo‘ladi, har xil shaxslar bilan muloqat qilish, hikoyalar o‘qish, fikr almashish va biror muammoni muhokama qilish kabi imkoniyatlarga ega bo‘ladi. Shuningdek, o‘smir yoshidagi o‘quvchi yoshlar mustaqil bo‘lishga, o‘z muammolarini o‘zi yechishni xohlashadi. Shu nuqtai nazardan internet o‘smirlar uchun qulaylik tug‘diradi hamda ehtiyojlarini qondirishda yetakchi o‘rinni egallaydi[5]. Boshqa tomondan esa har doim ota-ona nazoratida bo‘lishadi. Ma’lumki, o‘smirlik va yoshlik davridagi o‘quvchilar ko‘pincha o‘tish davrida stress va umidsizlik davrida bo‘ladi. O‘smir yigit yoki qiz hamma joyda-maktabda, oilada va tengdoshlari bilan muloqat jarayonlarida ko‘pincha o‘zini stress holda his qiladi. Bunday holda muloqatning anonimlik darajasi muhim ahamiyatga ega. Bunday hollarda o‘smir yoshidagi o‘quvchilar keksa odamlar kabi internet orqali muloqat qilish jarayonida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqani tiklash imkoniyatini yuqori baholaydi. Internetda ko‘p vaqt o‘tkazadigan yosh foydalanuvchilarning ijtimoiy yetuklik darajasi ortib bormoqda. Kibermakonda o‘zini namoyon qilish, o‘z shaxsiyatini anglash, tajriba o‘tkazishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish ko‘plab imkoniyatlarni ochib beradi. O‘smir yoshidagi o‘quvchi yoshlar real hayotda gaplasha olmaydigan mavzularni ijtimoiy tarmoqlar orqali bevosita muhokama qilishi mumkin.

Axborot elementlari butun jamiyat sivilizatsiya jarayonlariga ta’siri tez sur’atlar bilan o‘smoqda bu esa foydalanuvchilarning axborot oqimida harakati va o‘zgarishi hamda ma’lumotlar almashishida faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Bundan kelib chiqib, olingan ma’lumotlarni qiymati, sifati, ishonchliligi jamiyatdagi yangi ommaviy madaniyat turi, ma’lumotlardan foydalanish imkoniyatalari, shaxsning o‘zini-o‘zi boshqara bilish qobiliyatlari orqali yangi axborot muhitida shaxsning ijtimoiy rivojlanishi muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi. Shuni ta’kidlash joizki, o‘quvchi yoshlar uchun internet global tarmog‘i ma’lumotlar manbai bo‘lib xizmat qiladi. Bugungi kun maktab o‘quvchilari qanday ma’lumotlardan ko‘proq foydalanadi? Bevosita ma’lumotlarni tahlil qilar ekan quyidagi savollarga javob topishga harakat qiladi.

Internetda qanday ma’lumotlar mavjud?

U qanday izlanadi va saqlanadi?

Ushbu ma’lumotlarni kim taqdim etadi? Mazkur, savollarga javob topish mobaynida o‘quvchilar jamoyatdagi ijtimoiylashuv jarayonida bevosita qatnashadi. Shuningdek, internetdagi resurslardan kundalik faoliyati davomida foydalanib boradi.

Internetdagi axborot resurslarini bevosita to‘rt toifaga bo‘lish mumkin.

1. Axborot saytlari. Bilamizki internet dastlab insonlarning ma’lumot almashish vosita sifatida yaratilgan, shuningdek undan foydalanuvchilarni hajmi kattaligi bilan ahamiyatlidir. Axborot saytlari orasida turli yangiliklar, ko‘ngilochar saytlar, kutubxona saytlari,

ma'lumotlar bazasi saytlari, turli ma'lumotlar saytlari, onlain ensiklopediyalar va lug'atlar katalog saytlari va boshqa saytlardan foydalanish mumkin. Biz kerakli ma'lumotlarni Google, Yandex qidiruv tizimlari orqali kerakli ma'lumotlarni olish mumkin. Umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari uchun maxsus Google, Yandex qidiruv tizimlari mavjud bo'lib, unda o'qish, musiqa, texnologiya, barcha umumiy fanlarga doir materiallar, sport, bayram dasturlari, turli o'yinlar mavjud. Masalan, "o'qish" ni tanlaganimizda u toifalarni ega: maktablar, kollej, institut kabi oynalar hosil bo'ladi. Bunda "maktablar"da referat va insholar, maktab fanlari, maktab olimpiadalaridan foydalanish orqali o'quvchi yoshlarda internet va ijtimoiy tarmoqlar haqidagi ko'nikmalari shakllanib boradi.

2. Onlain saytlar. Mazkur turkumga asosan qidiruv tizimlari, pochta xizmatlari, aloqa saytlari bilan birgalikda ijtimoiy tarmoqlardagi ma'lumotlar almashish, chatlar, reklamalar, savol-javob xizmatlari, tanishuv saytlari va boshqalar kiradi.

3. Elektron tijorat saytlari. Bunda asosan onlain do'konlar, elektron to'lov saytlari, banklar va onlain bank tizimlarini qamrab oladi.

4. Internet vakolatxonalari. Bunga alohida foydalanuvchilarning shaxsiy sahifalari, davlat organlari va turli tashkilotlarning veb saytlari kiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, internet tarmog'isiz bugungi jamiyatimizni tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar bugungi kun o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish orqali ularning ijtimoiylashish jarayonida bevosita ta'sir qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Adabiyotlar:

1. Zimmermann, Peter: Grundwissen Sozialisation. Einführung zur Sozialisation im Kindes- und Jugendalter. 3., überarb. und erw. Aufl. Wiesbaden 2006. Zit. n. Emile Durkheim, p. 9.

2. Зимняя И. А., Морозова Н. А. Современное состояние проблемы концепций воспитания. - Ярославль: Современные концепции воспитания, 2000. - С. 171.

3. J.M.Nemo. LinkedIn Riches: How to use LinkedIn for Business, Sales and Marketing! Jumeirah Bay: CreateSpace Independent Publishing Platform, 2014. 124 p.

4. Gulhayo Bakhodirovna Kuzmanova, Approaches of mathematical and pedagogical scientists in the teaching of textual problems in general secondary schools. Current research journal of pedagogics 2(8): 80-83.

5. .Quzmanova G.B (2021) Umumiy o'rta ta'lim maktablarida matnli masalalarni ta'limiy. Academic Research in Educational Sciences, 2(3), 1154-1159.

РЕЗЮМЕ

Maqolada o'smir yoshidagi o'quvchi yoshlarning ijtimoiy tarmoq veb saytlaridan foydalanishi orqali ijtimoiylashish jarayonidagi faoliyati yoritilib berilgan. Shuningdek, ijtimoiy muloqotni amalga oshiruvchi veb saytlar, Facebook, Instagram, MySpace va Twitter kabi saytlar bugungi yoshlarni shiddat bilan o'ziga jalb qiladi, bunda ota-onalar ham ijtimoiy tarmoqlarni ijobiy va salbiy imkoniyatlaridan xabardor bo'lishning o'ziga xos imkoniyatlaridan foydalanish muhimdir. Shuni ta'kidlash joizki, o'quvchi yoshlar uchun internet global tarmog'i ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qilmog'i lozim.

РЕЗЮМЕ

В статье освещается социализационная деятельность школьников подросткового возраста посредством использования сайтов социальных сетей. Кроме того, сайты социальных сетей, такие как Facebook, Instagram, MySpace и Twitter, очень привлекательны для современной молодежи, поэтому родителям важно знать о положительных и отрицательных сторонах социальных сетей. Следует отметить, что глобальная сеть Интернет должна служить источником информации для учащейся молодежи.

SUMMARY

The article highlights the socialization activities of adolescent schoolchildren through the use of social networking sites. In addition, social networking sites such as Facebook, Instagram, MySpace, and Twitter are very attractive to today's youth, so it is important for parents to be aware of the positives and negatives of social media. It should be noted that the global Internet should serve as a source of information for young students.